

“Tasdiqlayman”
Toshkent viloyati Parkent tumani
34-sonli Bolalar musiqa va
san’at maktabi direktori
U. Raxmonov
22-avgust 2021 yil

**Toshkent viloyati Parkent tumani 34-sonli bolalar musiqa va san’at Maktab
ota-onalar qo‘mitasi to‘g‘risida
NIZOM**

I. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “O‘zbekiston Respublikasi boshlang‘ich san’at ta’limi Konsepsiyasi” asosida o‘z-o‘zini boshqaruvchi tashkilot hisoblangan maktabning ota-onalar qo‘mitasi faoliyatini tartibga solish uchun hamda boshlang‘ich san’at ta’limi va estetik tarbiyani mukammallashtirishni amalga oshirishda BMSMga yordam berish maqsadida ishlab chiqilgan.

1.2. Ota-onalar qo‘mitasi oila va BMSM o‘rtasida aloqani mustahkamlashga ko‘maklashadi, bu o‘z o‘rnida o‘quvchilarga bo‘lgan tarbiyaviy ta’sir va samaradorlikni oshirishning birdamligini ta’minlaydi hamda o‘quvchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning huquq va burchlarini tushuntirib berish uchun ko‘mak beradi.

1.3. Ota-onalar qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizom umummaktab ota-onalar majlisida qabul qilinadi hamda maktab direktorining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi va amaliyotga kiritiladi.

1.4. Ota-onalar qo‘mitasini rais boshqaradi. Qo‘mita umummaktab ota-onalar majlisiga bo‘ysunadi va hisobot beradi. Qo‘mita faoliyat ko‘rsatish muddati – bir yil.

1.5. Ota-onalar qo‘mitasining Nizomi umummaktab ota-onalar majlisida muhokama qilinadi va ovoz berish yo‘li bilan qabul qilinadi.

1.6. Qo‘mita ishini muvofiqlashtirish maqsadida qo‘mita tarkibiga, agarda ular BMSM o‘quvchilarining ota-onalari bo‘lishsa, maktab o‘qituvchilari ham kiritiladi. Qo‘mita BMSM rahbariyati, pedagogik kengash bilan mazkur Nizom va maktab Ustavi asosida hamkorlikda ish yuritadi.

1.7. Qo‘mita qarorlari tavsiyaviy hisoblanadi. Qo‘mitaning ijro uchun majburiy qarorlari, ularni amalga oshirish maqsadida maktab bo‘yicha buyruq chiqarilgan qarorlar hisoblanadi.

II. Ota-onalar qo‘mitasi maqsadlari

2.1. Ota-onalar qo‘mitasi faoliyatining maqsadi maktab o‘quvchilariga tarbiyaviy ta’sirning birdamligini o‘rnatish maqsadida maktab va oila o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan.

III. Ota-onalar qo‘mitasining vazifalari

3.1. Maktab rahbariyatiga ta’lim jarayonini amalga oshirish bo‘yicha sharoitlarni yaxshilash, o‘quvchilar sog‘ligi va hayotini muhofaza qilish, ularning erkin rivojlanishlariga sharoit yaratishda ko‘maklashish.

3.2. O‘quvchilarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish;

3.3. Umummaktab tadbirlarini tashkil qilish va o‘tkazish;

3.4. Ota-onalar bilan ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirish bo‘yicha, oilada bolani har tomonlama tarbiyalashning ahamiyati to‘g‘risida ishlarni olib borish.

IV. Ota-onalar qo‘mitasining ish rejasi

Maqsad: maktab o‘quvchilariga tarbiyaviy ta’sirning birdamligini o‘rnatish maqsadida maktab va oila o‘rtasida aloqalarni mustahkamlash.

Vazifalar:

4.1. Ota-onalarni darsdan tashqari va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga jalb qilish.

4.2. Ota-onalar orasida pedagogik bilimlarni targ‘ib qilishda maktab o‘qituvchilariga yordam berish.

V. Faoliyat yo‘nalishlari:

5.1 Oilalarni o‘rganish;

5.2. O‘quvchilar ota-onalari bilan munosabatlarni o‘rnatish;

5.3. Nostandart oilalar bilan ishlash (ko‘p bolali, to‘liq bo‘lmagan, nosog‘lom oila);

5.4. O‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini tashkil qilish;

5.5. Ota-onalar majlislarini o‘tkazish;

5.6. Yakka va guruhli maslahat darslari;

5.7. Maktabning barcha faoliyat turlari bo‘yicha hamkorlikka ota-onalarni jalb qilish.

VI. Ota-onalar qo‘mitasi bajaradigan ishlar

6.1. Sinf majlislari yoki sinf ota-onalar qo‘mitalari orqali maktabdagi o‘quv-tarbiyaviy jarayonni mukammallashtirish va tashkil qilishda maktabga ko‘maklashish masalalari bo‘yicha qo‘mita qarorlarini ota-onalarga etkazishda yordam beradi.

6.2. O‘quvchilarning muvaffaqiyatli ta’lim va tarbiya olishlari uchun yetarlicha shart-sharoitlarni ta’minlashda BMSMdagi sinflar ota-onalar qo‘mitalari va barcha o‘qituvchilarining faoliyatini muvofiqlashtiradi.

6.3. O‘quvchilarning ota-onalari orasida ularning huquq va burchlari to‘g‘risida tushuntirish va o‘rgatish ishlarini olib boradi.

6.4. Umummaktab tadbirlarini o‘tkazishda yordam ko‘rsatadi.

6.5. Maktabni yangi o'quv yiliga tayyorlashda ishtirok etadi.

6.6. Maktab ma'muriyatiga umummaktab ota-onalar majlislarini o'tkazishni tashkil qilishda yordam beradi.

6.7. Ota-onalar qo'mitasiga yo'llangan murojaatlarni ko'rib chiqadi, shuningdek mazkur nizomda ko'rsatib o'tilgan boshqa masalalar yuzasidan o'z vakolati doirasida ko'rib chiqadi.

6.8. Qo'mita vakolatiga kiruvchi maktabning lokal aktlaridagi savollarni muhokama qiladi.

VII. Ota-onalar qo'mitasining huquqlari

Mazkur Nizomda belgilangan vakolatlarga asosan Qo'mita quyidagi huquqlarga ega:

7.1. Rahbariyatga, maktabning o'z-o'zini boshqaruvchi tashkilotlariga takliflarni kiritish va natijalar yuzasidan ma'lumotlarni olish.

7.2. O'z vakolati doirasida tashkilot va korxonalariga murojaat qilish.

7.3. Maktab ma'muriyati va o'z-o'zini boshqaruvchi tashkilotidan ma'lumotlarni tinglash va olish.

7.4. Qo'mita majlislariga sinf qo'mitalarining tavsiyasi bilan ota-onalarni taklif qilishlari mumkin, pedagogik ta'sirning imkoniyatlari batamom tugaganlar uchun.

7.5. Maktabning lokal aktlarining muhokamasida ishtirok etish.

7.6. Ko'rib chiqilayotgan murojaatlar bo'yicha tushuntirishlar berish va choralar ko'rish.

7.7. Bolaga oilada tarbiya berishdan bosh tortayotgan ota-onalarga jamoat tanbehini berish.

7.8. Qo'mitaning faoliyatida faol ishtirok etayotgan, umummaktab tadbirlarini o'tkazishda yordam ko'rsatayotgan ota-onalarni rag'batlantirish.

7.9. O'z majburiyatlarini bajarish uchun qo'mita a'zolari rahbarligida doimiy yoki vaqtinchalik komissiyalarni tashkil qilish.

7.10. Lokal aktlarni qabul qilish va ishlab chiqish (sinf ota-onalar qo'mitasi to'g'risida, doimiy yoki vaqtinchalik qo'mita komissiyalari to'g'risida).

7.11. Ota-onalar qo'mitasi raisi alohida pedagogik kengashlarda va o'zini boshqaruvchi tashkilotlarning majlislarida Qo'mitaga oid masalalar qo'rilganda ishtirok etishlari mumkin (qo'mita a'zolarini habardor qiladi).

VIII. Ota-onalar qo'mitasining javobgarligi

Qo'mita quyidagilarga javobgar:

8.1. Ish rejaning bajarilishi.

8.2. Qo'mita qarorlari va tavsiyalarining bajarilishi.

8.3. Oila va jamiyat tarbiyasida o'quvchilarning ota-onalari va maktab rahbariyati o'rtasida o'zaro tushunish munosabatlarini o'rnatish.

8.4. Amaldagi qonunchilikka asosan to'g'ri qarorlar qabul qilish.

8.5. Qo'mita yoki uning ba'zi a'zolarining faoliyatsizligi.

8.6. Qo'mita ishida faoliyat ko'rsatmayotgan a'zolari Qo'mitaning tavsiyasiga binoan saylovchilar tomonidan olib tashlanishlari mumkin.

IX. Faoliyatni tashkil qilish

9.1. Qo‘mita tarkibiga har bir bo‘limdan bir yoki ikki nafardan o‘quvchilarning ota-onalari (qonuniy vakillari) kiradi. Qo‘mitaga nomzodlar har o‘quv yili boshida sinf ota-onalar majlislarida tanlanadi.

9.2. A‘zolarining sonini qo‘mita mustaqil belgilaydi.

9.3. Qo‘mita o‘z tarkibidan raisni saylaydi (qo‘mita a‘zolarining sonidan kelib chiqib, rais o‘rinbosari va kotibasi saylanishi mumkin).

9.4. Qo‘mita maktab rahbariyati bilan kelishilgan holda reglament doirasida o‘zi ishlab chiqqan reja asosida faoliyat yuritadi.

9.5. Qo‘mita o‘z faoliyati to‘g‘risida umum maktab ota-onalar majlisida bir yilda ikki martadan kam bo‘lmagan holda hisobot qiladi.

9.6. Qo‘mita majlislarida tarkibidagi a‘zolarining yarimi ishtrok etsa qarorlar qabul qilish xuquqiga ega. Qarorlar ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

9.7. Qo‘mita vakolatiga tegishli bo‘lgan xujjatlar maktab nomidan olib boriladi va maktab direktori hama qo‘mita raisi tomonidan imzolanadi.

X. Ish yuritish

10.1. Qo‘mita o‘z majlislarining va umummaktab ota-onalar majlislarining bayonnomalarini ta‘lim muassasasida ish yuritish yo‘riqnomalari asosida olib boradi.

10.2. Majlislar bayonnomalari kitobi tikiladi, raqamlanadi, maktab direktorining imzosi va maktabning gerbli muhri bilan muhrlanadi.

10.3. Qo‘mita majislari bayonnomalarining raqamlanishi o‘quv yili boshidan boshlanadi.

10.4. Bayonnomalar maktab devonxonasida saqlanadi.

10.5. Qo‘mitada ish yuritish uchun javobgarlik raisga yoki kotibaga yuklatiladi.

Sinf ota-onalar qo‘mitasi

Sinf ota-onalar qo‘mitasi sinf rahbari va tajribali hamda faol ota-onalar guruhi bilan hamkorlik shaklidir, qo‘mita maktab ota-onalar qo‘mitasi Nizomi asosida ishlaydi, o‘qituvchilar bilan birgalikda pedagogik ta‘lim bo‘yicha ishlarni rejalashtiradi, tayyorlaydi va o‘tkazadi, ota-onalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi, sinf o‘quvchilarining tarbiyasida yordam ko‘rsatadi: maktab va oila hamkorligining natijalarini tahlil qiladi, baholaydi va sarhisob qiladi.

Sinf ota-onalar qo‘mitasi – bu ota-onalar uyushmasi, uning faoliyati o‘qituvchilar jamoasiga har tomonlama yordam ko‘rsatishga hamda sinf rahbariga sinf o‘quvchilarining manfaatlari uchun maktab va oila hamkorligini tashkil qilishga qaratilgan.